

FUQAROLIK HUQUQIDA MULK HUQUQI AHAMIYATI VA UNING SHAKLLARI

Xoldorov Kozimjon Nasimjon o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti o'qituvchisi.

Rustamova Elnora Asliddin qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 423-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15732843>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mulk huquqi va uning asosiy shakllari chuqur tahlil qilinadi. Mulk huquqi fuqarolik huquqining markaziy institutlaridan biri bo'lib, u shaxslarning mol-mulk ustidan egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqini belgilaydi. Maqolada mulk huquqining mohiyati, yuridik tabiatiga aniqlik kiritilib, yakka tartibdagi, umumiy (ulushli va qo'shma) hamda davlat va xususiy mulk shakllari solishtirma-huquqiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida mulk huquqining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Mulk, egalik, foydalanish, tasarruf etish, Forbes, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi, ommaviy mulk, xususiy mulk, jamoaviy mulk, munitsipal mulk.

Mamlakatimiz qonunchilikida: "O'zbekiston Respublikasida mulk daxlsizdir, hamda har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli" ekanligi ta'kidlangan. Mulk huquqi- fuqarolarga o'zlari egaligidagi mulkni (moddiy ne'matlarni) muhofaza qilish, tartibga solish va tasarruf etish imkoniyatini beruvchi fuqarolik huquqi normalari yig'indisidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 164-moddasiga binoan, mulk huquqi -shaxslarning (yuridik va jismoniy shaxslar) o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkni, o'z xohishi bilan va manfaatlarini ko'zlab mulkga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etishi hamda ushbu huquq kim tomonidan bo'lmasin har qanday buzilishni bartaraf etish huquqidan iborat bo'lib, mulk huquqi muddatsiz - deb belgilangan. Mulkdorning mol mulkini olib qo'yishga hech kim haqli emas, bundan qonunda belgilangan holatlar mustasno. Mulk huquqi - qonun bilan qo'riqlanadigan, daxlsiz huquqdir.

Daxlsizlik esa, mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulkdorning mulk huquqini buzishdan o'zlarini saqlashlari demakdir. Qonunchiligimizga muvofiq quyidagilar mulk bo'la oladi, mulk huquqi obyekti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer, yer osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi, imoratlar va inshootlar,

mahsulotlar, turar joy va kvartiralar, mahsulot belgilari, sanoat namunalari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, integral mikrosxemalarning topologiyasi, seleksiya yutuqlari, mahsulot belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, asbob-uskunalar, moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlari, pullar, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulklar; insonning mehnat qilish qobiliyati. Ixtirolar, kashfiyotlar, fan, adabiyot, san'at asarlari, axborot, ilmiy g'oyalar, texnik ishlanmalar va aqliy ijodning boshqa obyektlarini yaratish hamda ulardan foydalanish xususidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Tarix va madaniyat yodgorliklariga mulkiy huquqni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunchiligi bilan belgilab beriladi.

Ushbu obyektlar mansubligiga ko'ra quyidagi mulk shakllariga Fuqarolik kodeksining 167- moddasi hamda mulkchilik bilan bog'liq qonunlarda nazarda tutilgan shakllarga ajratilgan bo'lib, ular quyidagicha tasniflangan: 1) ommaviy mulk; 2) xususiy mulk; 3) shirkat (jamo) mulki; 4) aralash mulkdir. Ushbu mulk shakllari o'ziga xos xususiyatlar va belgilarga ega hamda ularning har biri o'rtasida farqli jihatlar mavjud.

Har bir dunyo mamlakatida bo'lgani singari respublikamizda ham davlat mulki (ommaviy mulk) mavjud. Mamlakatimiz qonunchiligida ommaviy mulk quyidagicha tariflangan: respublikaning tasarrufida bo'lgan mol-mulklar hamda ma'muriy hududiy tuzilmalar egaligi ostidagi mulklar (munitsipal mulk)dan iborat bo'lgan davlat mulki ommaviy mulk sifatida belgilangan. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi mulkchilik munosabatlari, jumladan, ommaviy mulk munosabatlari Fuqarolik kodeksi hamda Qoraqalpogiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ommaviy mulk tarkibiga respublika mulki va munitsipal mulklar kiradi. Ular davlat hamda ma'muriy-hududiy tuzilmalar tomonidan muhofaza qilinadi. Ommaviy mulkni xususiylashtirishga "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida" qonunda belgilangan tartib va shartlarda xususiylashtirish mumkin.

Mulkchilikning navbatdagi shakli bu - xususiy mulkdir. Xususiy mulk qonunchilikka muvofiq qo'lga kiritilgan, o'z egasiga mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish hamda tasarruf etish kabi fuqarolik huquqlarini beruvchi, moddiy va ma'naviy ne'matlar, ashyolar, ko'char va ko'chmas mol-mulklar hisoblanadi. Xususiy bo'lgan mol-mulkning miqdor darajasi hamda qiymati cheklanmagan. Shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi natijasida olgan daromadlarini banklarga omonat sifatida qo'yish natijasida, yollanib ishlashidan olgan maoshlaridan, meros bo'lib qolgan mablaglardan hamda aksiyalar qimmatli qogozlardan olingan daromadlardan mol-mulklarga egalik qiladilar va ushbu mablag'lar ko'payib boradi.

Fuqarolarning mulklari davlat mulkini xususiylashtirish yo'lida ham mol-mulkka ega boladilar. Bugungi kunda dunyoda eng ko'p mol-mulkka ega insonlar ro'yxati "Ferbess"da e'lon qilingan. Unga ko'ra: 1-o'rin Elon Mask-boyligi 245 mld AQSHdollar, 2-o'rinda fransiyalik miliarder-Bernard Arno-uning boyligi. 191 mld AQSH dollari, 3-o'rinda, Amazon asoschisi Jeff Bezos, uning boyligi 168 mlrd dollar bilan yirik uchtalikni egallashgan, 10-pog'onada esa-Sergey Brin- 107,3mld dollar boylig bilan yakun yasagan.

Mulkchilikning keyingi shakli -shirkat (jamoat) mulkidir. Shirkat (jamoat) mulki oilaviy mulkni, mahalla mulkini, shuningdek kooperativlarning, ijara, jamoat korxonalarining mulkini, jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlarning, turli xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, assotsiatsiyalar va yuridik shaxs hisoblangan boshqa birlashmalarning mulkini o'z ichiga oladi.

Mulkning aralash shakllari mulkdorlarning moddiy va pul mablag'larini birlashtirish yo'li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissaviy ishtirok etish prinsipi asosida ham, shuningdek o'z mablag'larini birlashtirgan mulkdorlar o'rtasida daromadlarni qo'shgan ulushiga qarab taqsimlash asosida va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Aralash mulkning o'z mablag'larini birlashtirayotgan mulkdorlarning maqomi bilan belgilanadigan har xil turlari bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning, turli yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini birlashtirishga yo'l qo'yiladi.

Mulk shakllari bor ekan, ushbu mulkiy munosabatlarni amalga oshiruvchi subyektlar ham mavjud. Ushbu subyektlar; fuqarolar, yuridik shaxslar shuningdek, davlat ham mulkiy huquqlarning subyektlaridir. Mol-mulkka bo'lgan mulkiy huquqlar asosida ayni bir shaxsga jumladan, ikki va undan ortiq shaxslarga ham qarashli bo'lishi mumkin. Mol-mulk fuqaro, yuridik shaxs yoki davlatning mulki bo'lishiga qarab mulk huquqini, mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarruf etish huquqini vujudga keltirish va bekor qilish asoslari qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan. Mulk huquqi daxlsizligi hamda uning himoya qilinishi kafolatlanganligi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan mustahkamlangan.

Mulk huquqi, mulkdor mulkka egalik qilishni boshlagan paytdan e'tiboran vujudga keladigan huquqdir.

Mulkka egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish, mulk huquqini amalga oshirishdan boshlanadi. Qonunchiligimizda mulk huquqini amalga oshirish ning qator shartlari mavjud bo'lib, ular Fuqarolik kodeksining 172-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra mulkdor o'z huquqlarini amalga oshirish chog'ida boshqa shaxslarning huquqlari va qonunit manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Mulkdor ustunlik mavqeyidan boshqa fuqarolarning huquq va manfaatlarini kamsitishga haqli emas. Mulkdor o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish chog'ida fuqarolarning sog'lig'ini hamda atrof muhitni zararlardan muhofaza qilishni oldini olishga majbur hisoblanadi. Mol-mulkni yoqotish natijasida mulk huquqi ham tugatiladi. Mulkdor yuridik shaxs bolgan taqdirda mol-mulk uning hisobidan chiqarilgan taqdirda qonunda va boshqa shartlarda belgilangan tartibda mulk huquqi bekor bo'lishi mumkin.

Mulk huquqi davlat tomonidan ta'minlangani bilan bir qatorda muhofaza ham qilinadi.

Masalan, mol-mulkni mulkdordan olib qo'yishga qonunda aks ettirilgan holatlar hamda tartibda, mulkdor majburiyati bo'yicha undiruv o'sha mulkka qaratilgan taqdirda, jumladan rekvizitsiya, natsionalizatsiya hamda musodara qilish tartibida yo'l qoyiladi. Mol-mulk olib qo'yilgach mulk huquqi bekor bo'ladi va qonunga muvofiq quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mulk huquqini bekor qiluvchi qonun qabul qilingandan so'ng, ushbu qonun natijasida mulkdorga yetkazilgan zarar miqdori, ya'ni mol-mulk qiymati davlat tomonidan to'lab beriladi, zararni qoplash bilan bog'liq nizoli vaziyatlar sud tartibida hal qilinadi.

O'zbekistonda mulk bilan bog'liq munosabatlarni ko'rib chiqdik endi chet el mamlakatlaridan biri bo'lgan Rossiya federatsiyasining Fuqarolik kodeksida Mulk huquqi bilan bog'liq moddalaridan normalar keltirib o'tganmiz. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik Kodeksining 213-moddasiga ko'ra "Fuqarolar va yuridik shaxslar har qanday mol-mulkka egalik qilishi mumkin, bundan fuqarolar yoki yuridik shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin bo'lmagan ayrim turdagi mol-mulklar mustasno". Ushbu cheklovlar qonunga muvofiq belgilanadi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarning egaligidagi mol-mulkning miqdori va qiymati cheklanmaydi, agar bunday cheklovlar ushbu Kodeksning 1-moddasi 2-bandida nazarda tutilgan maqsadlarda qonun bilan o'rnatilmagan bo'lsa. Tijorat va notijorat tashkilotlari, davlat va munitsipal korxonalar hamda muassasalar bundan mustasno, o'z ta'sischi (ishtirokchilari, a'zolari) tomonidan ularga badal (hissa) sifatida berilgan hamda boshqa qonuniy asoslar bilan sotib olingan mol-mulkning egasi hisoblanadi. Jamoat va diniy tashkilotlar (birlashmalar), ijtimoiy foydali fondlar o'zlari sotib olgan mol-mulkning egalari hisoblanadi va uni faqat o'z ustav hujjatlarida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun ishlatishlari mumkin. Ushbu tashkilotlarning ta'sischi (ishtirokchilari, a'zolari) ular tomonidan tashkilot mulkiga o'tkazilgan mulk ustidan egalik huquqini yo'qotadilar. Agar bunday tashkilot tugatilsa, kreditorlarning talablarini qondirgandan so'ng qolgan mol-mulk uning ustav hujjatlarida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalaniladi.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi 209-moddasiga ko'ra mulk huquqining mazmuni, mulk egasiga o'z mulkidan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari tegishli bo'ladi. Mulk egasi o'z mulkiga nisbatan o'z xohishiga ko'ra har qanday harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega, agar bu harakatlar qonun va boshqa huquqiy hujjatlarga zid bo'lmasa hamda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini buzmasa. Xususan, u o'z mulkini boshqa shaxslarga sotishi, hadya qilishi, mulk huquqini o'zida qoldirgan holda, ularga egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini berishi, mulkni garovga qo'yishi yoki boshqa tarzda yuklatishi, shuningdek, unga boshqacha tarzda tasarruf etishi mumkin.

Yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish hamda ulardan tasarruf etish, ularning aylanmasi qonun bilan ruxsat etilgan darajada, mulkdor tomonidan erkin amalga oshiriladi, agar bu ekologik muhitga zarar yetkazmasa va boshqa shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasa. Mulk egasi o'z mulkini boshqa shaxsga (ishonchli boshqaruvchiga) ishonchli boshqaruvga berishi mumkin. Mulkni ishonchli boshqaruvga topshirish ishonchli boshqaruvchiga mulk huquqini o'tkazish bilan bog'liq emas, u ushbu mulkni mulkdorning yoki u ko'rsatgan uchinchi shaxsning manfaatlarini ko'zlab boshqarishi shart.

Dunyo miqiyosida eng ko'p mol-mulkka ega bo'lgan shaxslar ro'yxati e'lon qilindi.

Forbes talqiniga ko'ra 2023-yilning dekabr oyi holatiga ko'ra dunyoning eng boy 10 nafar milliarderi:

Ilon Mask (245,3 milliard dollar)

Bernard Arno (191,3 milliard dollar)

Jeff Bezos (168,4 milliard dollar)

Larri Ellison (146,5 milliard dollar)

Uorren Baffet (119,3 milliard dollar)

Bill Geyts (117,6 milliard dollar)

Mark Sukerberg (115,9 milliard dollar)

Stiv Balmer (112,8 milliard dollar)

Larri Peyj (111,7 milliard dollar)

Sergey Brin (107,3 milliard dollar)

Ushbu insonlar dunyo miqiyosidagi eng badavlat kishilar sifatida e'tirof etildi

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, Mulk huquqi — har qanday huquqiy tizimning asosiy institutlaridan biri bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslarning iqtisodiy erkinligini ta'minlaydi.

Mulk huquqining shakllari xususiy, davlat va jamoa mulki jamiyatdagi mulkiy munosabatlarning huquqiy asosini belgilaydi. Har bir shakl o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mulk huquqini qonuniy himoya qilish — ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot garovidir. Shu bois, ushbu huquq va uning shakllari to'g'risidagi bilimlar har bir huquqshunos va fuqarolar uchun zaruriy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2022.
3. “Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida”gi Qonun. – Qabul qilingan sana: 1991-yil 18-noyabr.
4. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi. – Moskva, 2023.
5. Axmedova Z.X. Fuqarolik huquqi. I-kitob. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2020.
6. G'aniyeva M.M., Sayidov A.X. Fuqarolik huquqi asoslari. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar”, 2019.
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasining rasmiy qonunchilik hujjatlari portali.
8. Forbes jurnali rasmiy sayti: <https://www.forbes.com> – Dunyo milliarderlari ro'yxati, 2023-yil dekabr holatiga.
9. Tojiboev B., Eshboev T. Fuqarolik huquqi. Darslik. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
10. Safarov A.X. Mulk huquqining nazariy va amaliy jihatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.